XIX ASRNING IKKINCHI YARMIDA BUXORO AMIRLIGINING SIYOSIY HAYOTI

Ismoilova Roxila Nortojiyevna

Mustaqil tadqiqotchi

https://orcid.org/0009-0009-2494-339X

Annotatsiya. Mazkur maqolada XIX asrning ikkinchi yarmida Buxoro amirligining siyosiy hayoti, davlat boshqaruvi tizimi, amir hokimiyatining xususiyatlari, saroy va ma’muriy boshqaruv organlarining faoliyati, ichki siyosiy jarayonlar hamda Rossiya imperiyasining Buxoro amirligiga nisbatan siyosiy va harbiy bosimi tarixiy manbalar asosida tahlil qilinadi. XIX asrning ikkinchi yarmi Buxoro amirligi tarixida murakkab va ziddiyatli davr bo‘lib, mazkur davrda ichki siyosiy boshqaruvning an’anaviy shakllari saqlanib qolgan bir vaqtda, tashqi siyosiy muhit keskin o‘zgardi. Rossiya imperiyasining Markaziy Osiyoni bosib olish siyosati Buxoro amirligining siyosiy mustaqilligiga jiddiy ta’sir ko‘rsatdi. 1860–1870-yillardagi harbiy to‘qnashuvlar, 1868 yilgi Zirabuloq jangi va keyinchalik tuzilgan Rossiya–Buxoro shartnomalari natijasida amirlikning tashqi siyosiy imkoniyatlari cheklandi. Shuningdek, maqolada Amir Muzaffar hukmronligi davridagi siyosiy jarayonlar, ichki muxolifat, viloyatlar ustidan markaziy hokimiyat nazoratining muammolari va amirlikning Rossiya imperiyasiga qaramligining kuchayishi yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Buxoro amirligi, siyosiy hayot, amir hokimiyati, Amir Muzaffar, qo‘shbegi, mang‘itlar sulolasi, Rossiya imperiyasi, Zirabuloq jangi, protektorat, markaziy hokimiyat.

KIRISH. XIX asrning ikkinchi yarmi Buxoro amirligi siyosiy tarixida tub burilishlar yuz bergan davrlardan biri hisoblanadi. Bu davrda Buxoro amirligida asrlar davomida shakllangan an’anaviy davlat boshqaruvi tizimi mavjud bo‘lib, amir davlatning oliy siyosiy, harbiy va ma’muriy rahbari sifatida faoliyat yuritgan. Shu

bilan birga, mamlakatning ichki siyosiy barqarorligiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar – mahalliy hokimlarning nisbatan mustaqil harakatlari, qabilaviy munosabatlar, saroy guruhlari o‘rtasidagi raqobat va ijtimoiy ziddiyatlar ham mavjud edi.

So‘nggi o‘rta asrlarda Markaziy Osiyo xonliklari ichida Buxoro amirligi (1753-1920) alohida mavqeyiga ega bo‘lgan, katta hududlarni egallagan davlat sifatida bilinib, uning bu mavqei vaqti-vaqti bilan o‘zgarib turgan. Bu holat uning Xiva xonligi bilan turkman cho‘llaridagi hududiy talashuvlari, Sirdaryo havzalari va Jizzax vohasi uchun Qo‘qon xonligi bilan ziddiyatlarga borgani, ba’zan bu hududlardagi siyosiy va harbiy muvaffaqiyatsizliklari Buxoro amirligining nufuziga putur yetkazgan. Shuningdek, 1840- yillarda Janubiy Turkiston (Shimoliy Afg‘oniston)dagi afg‘on amirlaridan olgan mag‘lubiyat [1] amirlikning siyosiy obro‘yi tushishiga olib kelgan.

XVIII asrning o‘rtalariga kelib Buxoro amirligi hududlarida birmuncha o‘zgarishlar yuz beradi. Buxoro hukmdorlari o‘z tasarruflarida Buxoro shahri va uning atrofidagi Vobkent, G‘ijduvon, Qorako‘l, Vag‘oza tumanlari, Qashqadaryo va Zarafshon vohalarida, xususan, Miyonqol hududida saqlab qololgan edilar. Buxoro hukmdorlarining Xo‘jand, Toshkent, Hisor ustidagi boshqaruvi birmuncha zaiflashgan bo‘lib, bunday holat bir muddat G‘uzor, Shahrisabz, Nurotadagi o‘zbek urug‘larining o‘z boshqaruvida erkinlikka intilishi kabi holatlar Buxoroning Shayboniylar va Ashtarxoniylar davridagi mavqeiga putur yetkazgan edi. Shuningdek, Amudaryoning yuqori havzasidagi Balx, Andxo‘y, Maymana, Badaxshon va Shibirg‘onlar ham Buxoroga vassal bo‘lishiga qaramay vaqti-vaqti bilan unga bo‘ysunmay qo‘ygan edi. Siyosiy tarqoqlikning asosiy sababi – so‘nggi ashtarxoniylar davridagi o‘zaro kurashlar, markazdan qochuvchi kuchlar mavqeyining o‘sishi bo‘lib [2], mintaqada Eronning siyosiy ta’siri kuchayib borayotgan bir davr edi.

1 Массон В.М., Рамодин В.А. История Афганистана. Том II. – М.: Наука, 1965. – С. 99, 143, 221, 223, 283.

2 Эшов Б. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. Иккинчи китоб. – Тошкент; Янги аср авлоди, 2019. – Б.93-94.

ASOSIY QISM. XVIII asrning 50-yillaridan boshlab, ya'ni mang'itlar sulolasi hukmronligi o'rnatilgach, Buxoro amirligi yana asta-sekin o'z mavqeini tiklay boshlaydi. 1780-1790 yillarga kelib Buxoro amirligining markaziy hududini Samarqand va Buxoro shaharlarini o'z ichiga olgan Zarafshon vohasi asosiy tayanch hududga aylanadi. XIX asrning boshlariga kelib Buxoro amirligi hududiga Zarafshon hamda Qashqadaryo vohalaridan tashqari Surxon vohasi, Hisor, Xo'jand, O'ratepa, Panjikent kabi aholi zich joylashgan tumanlar, Amudaryoning o'rta havzasidagi Kelif, Kerki mavzelari(Janubi-G'arbiy Turkmaniston)ning katta qismi, ya'ni Chorjo'ydan to Murg'ob daryosigacha bo'lgan hududlar amirlik tarkibida edi [3]. XIX asr boshlarida Buxoro amirligi bir tomondan Eron va Afg'oniston, ikkinchi tomondan Xiva xonligi, uchinchi tomondan qozoq juzlari va to'rtinchi tomondan Qo'qon xonligi hududlari bilan chegaradosh edi. Ko'p asrlar davomida musulmon dunyosining muhim siyosiy, iqtisodiy va madaniy markazlaridan biri bo'lib kelgan Buxoro Mang'itlar sulolasi (1753-1920) davrida ham shu maqomini saqlab qolishga intildi. Biroq, Ashtarxoniylar davlatining tanazzulga yuz tutishi oqibatida Buxoro xonligining hududlari ancha qisqarib qolgan edi [4]. XVIII asrning boshida Farg'ona vodiysi Buxorodan ajralib chiqadi va Qo'qon xonligi tashkil etiladi. Siyosiy tarqoqlik va ichki nizolar ayniqsa Ashtarxoniylar sulolasining so'nggi vakili Abulfayzxon (1711-1747) davrida o'zining yuqori cho'qqisiga yetdi. U o'z hukmronligining oxirgi yillarida davlat ishlarini yuritishni mang'itlar urug'iga mansub bo'lgan otaliq Muhammad Hakimbiy ixtiyoriga topshirib qo'ygan edi. Muhammad Vafo Karmanagiyning yozishicha, Hakimbiy otaliq Eron shohi Nodirshoh (17361747)ning Buxoroga bosqinini hokimiyatni egallash uchun qulay fursat deb bilgan. Nodirshoh vafotidan so'ng otaliqning o'g'li

3 Эшов Б. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. Иккинчи китоб. – Тошкент; Янги аср авлоди, 2019. – Б.94.

4 Эшов Б. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. Иккинчи китоб. – Тошкент; Янги аср авлоди, 2019. – Б.94.

Muhammad Rahim 1747-yilda Abulfayzxonni qatl ettirib, Buxoro taxtini egalladi va Mang‘itlar sulolasiga asos soldi [5].

Mang‘itlar sulolasining asoschisi, g‘ayratli va shijoatli Muhammad Rahimxon Buxoro taxtini egallashi bilan asosiy e’tiborni oxirgi Ashtarxoniylar davrida zaiflashib qolgan markaziy hokimiyatni kuchaytirish, amirlik yerlarini kengaytirishga sa’y-harakat ko‘rsatdi. Ammo uning amakisi amir Doniyolbiyning (1759-1785) yumshoq tabiatidan foydalangan o‘zbeklarning kenagas, yuz, barqut, saroy kabi yirik qabilalarining beklari markaziy hokimiyatga qarshi qo‘zg‘olonlar uyushtirishlari oqibatida hukmronligining oxirlarida mamlakatda ahvol nihoyatda og‘irlashgan edi. Amir Doniyolning o‘g‘li Shohmurod (1785-1800) hali otasi hayotligidayoq uning talabi bilan davlat ishlarini o‘z qo‘liga olib, mamlakatda tartib o‘rnatishga kirishdi. U sulola asoschisi Muhammad Rahimxonning markazlashtirish siyosatini davom ettirdi. Amir Shohmurodning davrida Buxoroda ma’muriy, moliyaviy, harbiy va sud islohotlari o‘tkazildi. Shohmurod tashqi siyosat borasida ham qattiqqo‘llik bilan ish yuritib, Nodirshoh istilosidan keyin Buxorodan ajralib chiqqan janubiy hududlarni qaytadan Buxoro davlati tarkibiga kiritdi. U 1785-1801-yillar davomida bir necha bor Eron va Afg‘on qo‘shinlariga qarshi jang olib bordi va mamlakat hududlarini Chorjo‘y, Karki, Marv hisobiga kengaytirdi.

Amir Haydar (1800-1826) Buxoro taxtiga o‘tirishi bilan O‘ratepa, Shahrisabz, Samarqand hokimlari va qabila boshliqlarining g‘alayonlari boshlanib ketdi. Bu kabi harakatlar Buxoroda hukmdor almashishi davrida deyarli har doim takrorlanardi. 1821-1825-yillarda Miyonkolda yashovchi xitoy-qipchoqlar boshchiligida bo‘lib o‘tgan g‘alayonlar ayniqsa ommaviy tus olgan[6]. Amir Haydar Jizzax hamda O‘ratepa ustidan nazorat o‘rnatish maqsadida bir necha marotaba Qo‘qon xonlariga qarshi yurishlar uyushtirdi. Shu bilan birga, Chorjo‘y va Marv hududlari bo‘yicha Xorazm

5 Эшов Б. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. Иккинчи китоб. – Тошкент; Янги аср авлоди, 2019. – Б.85.

6 Иванов П.П. Восстание китай-кипчаков в Бухарском ханстве 1821-1825 гг. // Труды Института востоковедения АН ССР, вып. XXVIII. – М. – Л.: Изд-во АН СССР, 1937.

hukmdori Eltuzar (1804–1806) bilan ham to‘qnashuvlarga kirishdi. Hayotining so‘nggi yillarida esa, u ichki va tashqi dushmanlarini yengib, o‘z mavqeini mustahkamlashga muvaffaq bo‘ldi 7.

Amir Haydar vafotidan so‘ng taxt uchun bo‘lib o‘tgan qisqa muddatli janglarda uning uchinchi o‘g‘li Nasrulloh (1826-1860) g‘alaba qozonib, Buxoro taxtiga o‘tirdi. U otasi amir Haydardan farqli ravishda mamlakatda ichki tartib o‘rnatish va davlat boshqaruvini amalga oshirishda nihoyatda qattiqqo‘llik bilan ish tutdi. Uzoq yillik hukmronligi davrida u bir necha bor Qo‘qon va Xiva xonliklariga qarshi muvaffaqiyatli yurishlar qildi.

1860-yilda amirlik taxtiga Sayyid Muzaffar (18601885) chiqadi. U o‘z hukmronligining dastlabki yillarida mamlakatni mustahkamlash va uning sarhadlarini kengaytirish borasida birmuncha harbiy harakatlar olib boradi. Bu amir Hisorga ikki marta qo‘shin tortib, Darvoz, Ko‘lob, Baljuvongacha bo‘lgan yerlarni o‘z hududiga qo‘shib oldi, Shahrisabzni bo‘ysuntirib, keyinroq Qo‘qon xonligini tobe qildi.

Rossiya imperiyasi qo‘shini 1864-yildan boshlab Markaziy Osiyo hududlariga yurish qilib, qisqa fursat ichida Qo‘qon xonligiga qarashli Chimkent va Toshkent shaharlarini egallagach, 1866-1868-yillar orasida Buxoro amirligining Buxorodan Zirabuloqqacha bo‘lgan hududlari bosib olinadi. Amirlikning Jizzax, O‘ratepa, Xo‘jand, Samarqand, Kattaqo‘rg‘on kabi yirik shaharlari 1867-yilda tuzilgan Turkiston generalgubernatorligi ixtiyoriga o‘tadi. Amir Muzaffar 1868-yilda Rossiya bilan sulh shartnomasini imzoladi va Buxoro amirligi Rossiya davlatining tobesi bo‘lib qoladi.

Buxoro amiri Sayyid Amir Olimxon o‘z qaydlarida “Buxoro mamlakati Amudaryoniig sharqiy sohillaridan, ya’ni Rusiya Pomiridan to Xevaning keng dashtlarigacha cho‘zilib boradi. Rusiya bilan Buxoro o‘rtasida bo‘lgan urushdan oldin 1868 yili va bolsheviklar hukumati tasarrufida (1920) bo‘lgan chog‘da Buxoro shimol

7 Кюгельген А. фон. Легитимация среднеазиатской династии Мангитов в произведениях их историков (XVIII-XIX вв.). – Алмати: Дайк-пресс, 2004. – С. 90.

tarafdan Qizilqum saxrosi bilan chegaradosh. G‘arb tarafdan Sirdaryo bilan hamda Ho‘qand xonligi bilan, janubdan esa Afg‘oniston, Sharqdan turkman o‘lkasi ham Xeva dashti bilan chegaradosh”[8] deb eslatilgan bo‘lsa-da, aslida bu o‘rinda amir bir qator yanglishuvlarga yo‘l qo‘ygani, Buxoro “Sharqdan turkman o‘lkasi ham Xeva dashti bilan chegaradosh” degan jumlalarda anglashmovchiliklar borligi ko‘zga tashlanadi. Xeva, ya’ni Xiva xonligi amirlikning shimoli-g‘arbida joy olib, amirlikning shimoli-sharqida Huqand (Qo‘qon) xonligi o‘rin olgan, amir Olimxon boshqaruvi davrida bu xonlik o‘rnida Rossiya imperiyasi tarkibidagi Turkiston general-gubernatorligi joylashgan edi. Shuningdek, “Sharqda turkman o‘lkasi” jumla yanglish bo‘lib, chamasi, muallif bu atamani Turkiston general-gubernatorligi uchun qo‘llagan ko‘rinadi.

XIX asrning 50-yillarida Buxoro amirligi mintaqada o‘rta asrlarda mavjud bo‘lgan an’analarga ko‘ra bir necha **viloyatlardan** tashkil topgan bo‘lib, “bek” deb atalgan joylardagi ma’muriy amaldorlar bog‘liq ravishda har bir viloyat “beklik” deb yuritilar edi. Shunga o‘xshash holat qo‘shni Xiva va Qo‘qon xonliklarida ham ko‘zga tashlanib, ularning ma’muriy boshqaruvi Buxoronikiga birmuncha o‘xshab ketardi. Dastlab viloyatlar “hokim” deb ataluvchi ma’murlar tomonidan boshqarilgan bo‘lsa-da, keyinchalik viloyat o‘rniga **bekliklar** paydo bo‘lgach, ularning hukmdorlari “**bek”** deb atala boshlagan. Buxoro amirligida 44 ta beklik mavjud bo‘lgan bo‘lib, Rossiya imperiyasi amirlikning sezilarli bir qismi – Jizzax viloyati va Samarqand viloyatning markaziy hamda sharqiy hududlarini tortib olgach, ularning soni 27 taga qisqaradi[9] .

XULOSA. qilib aytish mumkinki, XVIII asrning dastlabki yarmida Buxoro xonligining hududi sezilarli darajada torayib ketdi. Bu jarayon, asosan, Ashtarxoniylar sulolasi vakillari o‘rtasidagi ichki nizolar natijasida yuzaga kelgan. Biroq asrning ikkinchi yarmiga kelib, hokimiyat tepasiga mang‘itlar sulolasi kelgach, amirlik o‘z hududlarini asta-sekin kengaytira boshladi. Bu kengayish Miyonqol vohasi, Panjikent

8 Амир Саййид Олимхон. Бухоро халқининг ҳасрати тарихи. Форсийдан таржима, муқаддима ва изоҳлар муаллифи Абдусодиқ Ирисов. Нашрга тайёрловчи Саид Мурод. – Тошкент: Фан, 1991. – Б. 17.

9 Эшов Б. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. Иккинчи китоб. – Тошкент; Янги аср авлоди, 2019. - Б.95.

shahri, Amudaryoning o‘ng sohillari va Sharqiy Buxoro yerlari hisobiga amalga oshirildi. Shu davrda viloyatlarni boshqarayotgan shaxslar avval “hokim”, keyinchalik esa “bek” unvoni bilan atalgan. Ma’muriy tuzilma esa qishloq, mavze va daha kabi kichik birliklarga ajratilgan edi.

Aholining asosiy qismini o‘zbeklar tashkil qilgan bo‘lsa, ularning ortidan tojiklar va turkmanlar yashagan. Shuningdek, yahudiy, arab, lo‘li va afg‘on millatiga mansub kishilar ham amirlik hududida istiqomat qilganlar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ражабов Р. Ўрта Осиё этномаданий жараёнларида араблар. Т.: Янги аср авлоди, 2011. – Б. 42.

2. Маликов А.М. Тюркские этнонимы и этнотопонимы долины Зерафшана ... – С. 147, 149, 154-157, 161-164, 167-168, 175, 179-180.

3. Населенные пункты Бухарского эмирата (конец XIX – начало XXв.) / Материалы к исторической географии Средней Азии. Под редакции. А.Р. Мухаммеджанова. – Т.: Университет, 2001. – С. 5-41, 62-72, 73-83;

4. Barfield T. The Central Asian Arabs of Afghanistan Pasroral Nomadism in Transition University of Texas Press.1983. – P. 4.

5. Туйчиев У. История расселения народов Узбекистана (по данным топонимии Зарафшанской долины): Автореф…канд. дис. – Т.,1990;

6. Аллабердиев А. Бухоро ўғуз шевалари лексикаси. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Т.: ТошДЎТАУ: 2018. – Б. 17.

7. Эшов Б. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. Иккинчи китоб. – Тошкент; Янги аср авлоди, 2019.